

## TRANSFORMATORLARNI KUCHLANISHINI ROSTLASH

*Axmedov Abdurauf Abdug‘ani o‘g‘li,*  
*Jizzax politexnika instituti,*  
*Elektr texnologiyasi kafedrasi assistent*  
[axmedovabdurauf24@gmail.com](mailto:axmedovabdurauf24@gmail.com)


**ANNOTASIYA.** Maqolada elektr energetika ta’minoti tizimidagi podstansiya transformatorlaridagi nominal kuchlanishni qiymatdan kamayib yoki ortib ketishi muammolari yoritilgan bo‘lib va bu muammolarni podstantsiya transformatorlarni yuklama ostida rostlash qurilmasi bilan bartaraf etish tartiblari keltirilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:** Elektr energetika ta’minoti, elektr energiya iste’molchilar, podstantsiya, transformator, nominal kuchlanish, (YuOR) elektr texnika qurilmalar.

Elektr energiya iste’molchilar aniq bir nominal kuchlanishda normal ishlaydi. Kuchlanishni nominal qiymatdan kamayib yoki ortib ketishi ishlab chiqarilayotgan maxsulot sifatini pasayishiga, elektr texnika qurilmalarini ishlash muddatinikamayishiga olib keladi. Shuning uchun kuchlanishni nominal qiymatda ushlab turish extiyoji tug‘iladi. [1 ]

Hozirgi vaqtida podstantsiya transformatorlarni yuklama ostida rostlash (YuOR) qurilmasi bilan jihozlangan bo‘lib bu qurilma transformatorni yuqori kuchlanish tomonidagi o’ramlar sonini avtomatik qayta ulab kuchlanishni rostlaydi. Yuklama ostida rostlanuvchi transformatorlar qo’shimcha kuchlanishni avtomatik rostlagich KAR bilan jihozlanadi. Transformator (KAR) qurilmasi bilan birqalikda transformatorni transformatsiya koefitsientini avtomatik rostlash tizimini vujudga keltiradi. Avtomatik rostlash tizimini asosiy xarakteristikalari:

- rostlash pog‘onasi,  $U_n=1,25-2,5\%$ ;
- sezmaydigan zonası ( $DU_{sz}$ )
- bunday kuchlanishni o‘zgarish zonasida rostlagich ishga tushmaydi.  
Har doim  $DU_{sz} > U_n$  bo‘lishi kerak;
- rostlash aniqligi-sezmaydigan zona kuchlanishini yarmiga teng kuchlanishni o‘zgarishi bilan xarakterlanadi;
- kechikish vaqtqi-qisqa vaqtli kuchlanishni o‘zgarishida rostlagichni ishgatushmasligini ta’minlovchi arametr;
- rostlagich ustavkasi-rostlagich tahminlashi zarur bo‘lgan kuchlanish.




1-rasm. Kuchlanishni rostlash jarayoni grafigi

Grafikda 3 chiziq rostlagich ustavkasi, 5 va 1 sezmaydigan zonalar chegarasi ( $DU_{sz}$ ) rostlagich harakatga kelishi zarur bo‘lgan kuchlanish qiymati bilan aniqlanadi.

Grafikdan ko‘rinadiki, talab etilayotgan kuchlanish qiymati  $\pm DU_{sz}/2$  aniqlikda rostlanadi.



1-rasmda qaytarish kuchlanishi 2,4 shtrix chiziqlar bilan ko'rsatilgan. qayta ulanish-agarda kuchlanishni chetlashish vaqtি rostlagichni kechikish vaqtি ( $t_1$ ) va yuritma mexanizmini ta'sir vaqtি ( $t_2$ ) yig'indisidan katta bo'lsa sodir bo'ladi. Bunda kuchlanish grafigi m nuqtadan n nuqtaga sakrash bilan o'zgaradi, yahni kuchlanish rostlash pog'onasi qiymati ( $U_n$ ) miqdoriga o'zgaradi Elektr energetika tizimda ishlatiladigan transformatorlar kuchlanishini avtomatik rostlash qurilmasini funktsional sxemasi 2-rasmda ko'rsatilgan. Funktsional sxema o'lchash ( $O'$ ), mantiqiy ( $M$ ) va bajaruvchi ( $B$ ) qismlardan iborat. [2]



## 2-rasm. Transformator kuchlanishini avtomatik rostlash qurilmasini funktional sxemasi

O'lchash qismidagi EVR qurilmasi rostlagichni statik xarakteristikasini tahminlaydi. Bu qurilma yuklanish toki qanday qiymatga ega bo'lishidan qat'iy nazar istehmolchida kuchlanishni belgalangan qiymatda bo'lishini tahminlaydi. Kuchlanishni o'lchash organi (KO'O) kuchlanishni solishtirish elementi (SE) va A1, A2 kuchaytirgichlardan iborat. Solishtirish elementi chiqishdagi kuchlanishni belgilangan kuchlanish bilan solishtiradi va solishtirish farqini ishorasiga ( $\pm D$ ) asosan uni tegishli releli kuchaytirgichga tavsiya etadi. KO'Oni minimal yoki maksimal kuchlanish relesi, ikki mutloq elektrik qiymatni solishtiruvchi diod sxema asosida yig'iladi.

Mantiqiy qism vaqtini kutish elementi «EV», «YOKI», «VA» elementlaridan iborat. Kechikish vaqtini yuzaga keltirish rostlagichni qisqa vaqtli kuchlanish o'zgarishida ishlab ketmasligini tahminlash uchun zarur. [ 3 ]

Bajaruvchi qism RO1 va RO2 oraliq relelardan iborat bo'lib, kuchlanish oshib ketganda RO2 rele, kamayib ketganda esa RO1 rele ishga tushadi. Elektroenergetika tizimida ishlataladigan eng ishonchli rostlagichlardan biri ART-1N ti'li rostlagichdir.U podstantsiyalarda kuchlanishni uzluksiz ravishda rostlaydi va unda kuchlanishni ustavka qilish imkoniyati mavjud. ART-1N rostlagich bilan parallel ulangan transformatorni guruqli rostlash va xususiy sxema elementlarini to'g'ri ishlashini nazorat qilish mumkin.

Foydalaniłga adabiyotlar ro'yxati

- 1.Gayibov T.S.H., Shamsutdinov H.F., Pulatov B.M.. Elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash. – T: "Fan va texnologiya", 2015.

2. Даминов А.А., Махмудов Н.М. Функциональные возможности и преимущества микропроцессорной системы воздушных линий // Science Time. – 2016. – № 3 (27). – С. 159-161.
3. Даминов А.А. Автоматическое управление гидрогенераторов и турбогенераторов электростанции. Инновационные подходы в современной науке: сборник статей по материалам LXXXII международной научно-практической конференции. – Москва, 2020. – № 22 (82). – С. 32-37.



LOBACHEVSKY  
UNIVERSITY

N<sup>+</sup> Новосибирский  
государственный  
университет  
настоящая наука

Новосибирский  
государственный  
технический университет  
**НЭТИ**

МФТИ